

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faoliik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdag'i bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannanova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish	299
D.T.Rustamova	
Kichik muktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik muktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISIINING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPMENT OF CREATIVE QUALITIES OF THE PRIMARY CLASS TEACHER

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Egamberdiyeva Yulduz Urinboyevna

Farg'ona davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lif uslubiyoti" kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlanishini oshirish, dunyoqarashini boyitish borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan tavsiyalar berib borilgan. Tadqiqot zamonaviy jamiyatda ilgor pedagog faoliyatining ahamiyatini tahlil qiladi va muammosini turli fanlar kontekstida ko'rib chiqadi. Ta'lif texnologiyalari bilan tanishtirish asosida kreativ tafakkurini rivojlanish usul va metodlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ilmiy yondashuvlar va amaliy strategiyalarning ahamiyatini ta'kidlanadi. Zamonaviy o'qituvchining muammosi, uning ijtimoiy, psixologik va pedagogik ogibatlarini tushunish orgali o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot shuningdek, o'qish jarayoniga ta'sir qiluvchi turli omillarni yoritadi. vazifasi bolalarni o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatish, ularni to'g'ri tanlashga o'rgatish, kreativ fikrashga o'rgatishdir. Natijalar, pedagog bilan bog'liq muammolarni yechishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli didaktik va terapeutik usullarni taklif qiladi. Shunday ekan bu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini doimo o'z ustida tinimsiz ish olib borishi lozimligi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

В данной статье приведены рекомендации, которые следует реализовать для развития творческих качеств учителей начальных классов, повышения их потенциала, обогащения мировоззрения. В исследовании анализируется значение опережающей педагогической деятельности в современном обществе и рассматриваются ее проблемы в контексте различных дисциплин, исходя из внедрения образовательных технологий, значимости научных подходов и практических стратегий в решении проблем, связанных с методами и методами развития. подчеркивается творческое мышление. Обсуждаются подходы, направленные на улучшение навыков чтения учащихся через понимание проблемы современного учителя, ее социальных, психолого-педагогических последствий. Исследование также проливает свет на различные факторы, влияющие на процесс обучения. Задача – научить детей самосознанию, самоконтролю, самодисциплине, научить их делать правильный выбор, научить творчески мыслить. Полученные результаты позволяют предположить различные дидактические и терапевтические методы, которые можно использовать для решения задач, стоящих перед педагогом. Поэтому в данной статье говорится о необходимости постоянной работы учителя начальных классов над собой.

Abstract

In this article, there are recommendations that should be implemented in order to develop the creative qualities of primary school teachers, increase their potential, and enrich their worldview. The research analyzes the importance of advanced pedagogic activity in modern society and examines its problems in the context of various disciplines. Based on the introduction of educational technologies, the importance of scientific approaches and practical strategies in solving problems related to the methods and methods of developing creative thinking is emphasized. Approaches aimed at improving students' reading abilities by understanding the problem of the modern teacher, its social, psychological and pedagogical consequences are discussed. The study also sheds light on various factors that influence the learning process. task is to teach children self-awareness, self-control, self-discipline, to teach them to make the right choice, to teach them to think creatively. The results suggest different didactic and therapeutic methods that can be used to solve the problems related to the pedagogue. Therefore, this article talks about the need for primary school teachers to constantly work on themselves.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, o'quvchi, kreativ, sifat, rivojlanish, sifat, samaradorlik

Key words: beginner, student, creative, quality, development, quality, efficiency.

Ключевые слова: новичок, студент, креатив, качество, развитие, качество, эффективность.

KIRISH

Dunyo ta'lif taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta'lif jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Bugungi kunning eng dolzarb

masalalaridan biri boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlantirish masalalari hisoblanmoqda. Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarning biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchani olib kirdi. Kreativlik bu-Kreativlik (lot.ing.create-yaratish, creative-yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy sifati hisoblanadi. Shunday ekan bugungi kunda umumta'lim mакtablarida o'qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob'ekti sifatida tatqiq etilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kundagi zamonaviy uzlusiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o'qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzlusiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "... bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarining obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarining o'zları ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim", - degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi. Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida "Sharqona qarashlarimizda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu esa bugungi kun o'qituvchisidan katta mas'uliyatni talab qiladi", - deb ta'kidladilar. Demak, bugungi kun o'qituvchilarini ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan tanishtirish asosida kreativ tafakkurni rivojlantirish haqida so'z boradi. Ta'lim amaliyotida innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyaga asoslangan fazilatlari va kreativ sifatlarini izchil rivojlantirish masalalari bugungu kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi bir qator omillar, shuningdek, kreativ sifatlarining rivojlanish bosqichlari mavjud. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilar doimo o'z ustida ishlashlari kreativlik sifatlarini rivojlantirib borishlari lozim. Umumta'larning ustuvor vazifasi nafaqat o'quvchilarining intellektini, balki ma'naviy va hissiy sohasini, mehnatga kreativ yondashishni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu kelajakdag'i kasbiy faoliyati samaradorligi va ijtimoiy moslashuvi uchun shartdir.

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi –kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Amerikalik olimD.Veksler "Kreativlik fikrnинг shunday turki, u shaxsga bir muammo yokimasala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadiva shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - deb ta'rif beradi .A.Maslou ham kreativlikni - barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish, atrofmuhitning ta'sirida ko'pchilikda yo'qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan.Amerikalik psixolog olim Dj Pol Gilford o'zining ilmiy tadqiqot ishlaridakreativlik va intellekti birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasimodelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi.Konvergent tafakkur - (lotincha convergere- "bir yo'ldan") tafakkurformasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risinitanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchunintellektual tafakkur deb ham ataladi.

Zamonaviy o'qituvchining vazifasi bolalarni o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatish, ularni to'g'ri tanlashga o'rgatish, kreativ fikrlashga o'rgatishdir.

PEDAGOGIKA

Shunday ekan boshlang'ich sinf o'qituvchilari doimo o'z ustida tinimsiz ish olib borishi lozim. Shunday ekan bugungi kunda kreativ sifatlarni rivojlantirish hayotiy masalaga aylanadi. Ishimizning maqsadi shundan iboratki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishning pedagogik shartlari va vositalarini aniqlash va asoslash. Nazariy jihatdan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodga, erkin improvizatsiyaga, oddiy narsa va hodisalarda yangi o'xshashliklarni topish sifatini rivojlantirish va amaliy ko'rsatish, xotirjamlik, xayrixohlik muhitini yaratish va sinfdagi har qanday muammolarni hal qilish sifati quyidagilardan iborat.

1. o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga oid adabiyotlarni tahlil qilish;
2. texnologiya darslarida badiiy qayta ishlashda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim faolligini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni tahlil qilish;
3. boshlang'ich sinf o'qituvchilariga Texnologiya darslarida qog'ozga badiiy qayta ishlash texnologiyasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish;
4. o'quvchilarning ijodiy sifatlarini rivojlantirish metodlari asosida texnologiya darslarini o'tkazish metodikasini ishlab chiqish;
5. ishlab chiqilgan metodologiyani amaliyotda tekshirish.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lganligi bois mazkur ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilyapti. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligi va tafakkur xususiyatlari o'rtasida o'zarlo aloqalar mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga nisbatan differentsial yondashuvni tadbiq qilish ularni kreativligini faollashishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zi kreativ bo'lsagina o'quvchilarni ham anashu ruhda tarbiyalay oladi. Ta'limg berish jarayonida quyidagi jarayonlar o'quvchilarni kreativligini oshiradi. -O'qishning ongliliginini va ta'sirchanligini ta'minlash,, matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash. -Ongli o'qishni amalga oshirishda ko'plab lug'at ustida ishlash. -She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish va yod oldirish, -O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish, gap tuzishga, tez mustaqil fikrlashga erkin imkoniyat yaratishi. -O'qituvchi har bir o'quvchini eshitishi, o'quvchining xato fikrlashini bilsa ham ularni to'xtatib tashlamasligi, hattoki xato bo'lsa ham eshitishi kabi tushunchalar misol bo'la oladi. - Rasmlar yordamida ham kreativlikni rivojlantirish mumkin. O'quvchilarga "muammoni hal qilishning aqlo bovar qilmas varianti"ni tasavvur qilishlarini aytishimiz kerak. Bu ijod jarayonidagi o'quvchilarni o'zlariga yaratish ishonchini his qilishga undaydi, ijodga da'vat etadi. O'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faoliyk ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, shaxs o'zida kreativlik qobiliyati mayjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin? Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yuqoridaq natijalardan ko'rinish turbdiki qachonki boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlarini kreativ sifatga ega bo'lsa shundagina o'quvchilarni ham ana shu ruhda tarbiyalay oladi. Bulardan tashqari har – bir o'tayotgan darslarini tashkillashtirishda 20 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya bololarga qulay soddo hamda ularni tinimsiz o'z ustida izlanishga undaydigan darslarni kreativ usulda tashkil qilishni tashkillashtira olishi lozim, shundagina ta'limga ko'zlagan maqsadga oson erishish mumkin. O'qituvchi kreativligining shakllanishi «ehtiyojlar, yo'nalishlar va

"Men" kontsepsiya"laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. // Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997
2. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X."Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya." T., 2013.
3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X."Boshlang'ich ta'limda innovatsiya".T.,TDPU 2007-y
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
5. Larin A.E. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tarbiyalash - M.: Vyssh. maktab - 1990. - 206
6. Esaulov A.F. Talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini faollashtirish. - M.: Yuqori. maktab - 1982 - 223 b
7. Egamberdiyeva .Y.U O'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi qo'shma faoliyatida boshlang'ich ta'lim mazmunini o'zgartirish fenomeni. 2024.1/4. O'ZMU. 240-243b
8. Egamberdiyeva , Y.U. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari. "boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari:muammo,yechimlar va rivojlanish istiqbollar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman .26.04.2024.203-206